

**DORIXONA SOTUVCHISI TOMONIDAN O'ZBOSHIMCHALIK BILAN DORI TAVSIYA  
ETISH HOLATLARINING SALBIY OQIBATLARI**

**Salohiddinova G'azalxon**

*TTA "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi*

**Egamberdiyeva Zilola Zavqiy qizi**

*TTA "Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi" yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**O'ralova Ozoda Rustam qizi**

*TTA "Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi" yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolamizda dori sotuvchisi tomonidan o'zboshimchalik bilan dori sotganda kelib chiqadigan holatlar va ularni oldini olish choralarni ko'rib chiqamiz.*

Dorixona sotuvchisi xaridorni ma'lum bir preparatning analoglari mavjudligi to'g'risida xabardor qilishi kerak. Dorixona sotuvchisi savodli bo'lishi, xaridorni qiziqtirgan dori yoki tibbiy asbob haqidagi ma'lumotlarni xaridorga professional va tushunarli tarzda tushuntirish kerak. Sotuvchi kuchli ta'sir etuvchi psixotrop dori vositalarini faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan shifokor ko'rsatmasi asosida chiqarishi shart. Bunday dori vositalarini elektron tijorat orqali sotishga yo'l qo'yilmaydi. Sotuvchi xaridor tomonidan sotib olingan barcha tovar obyektlari ko'rsatilgan fiskal chek va sotish kvitansiyasini berishga majbur. Xaridor esa sotuvchidan o'zi sotib olgan dori vositalari va tibbiyot buyumlarining sifatini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek ularning narxini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishni talab qilishi mumkin.

Ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlarining ro'yxatiga kiritilgan dori vositalarining savdo nomlari va tibbiyot buyumlariga belgilangan ulgurji va chakana narxlarini o'rnatish tartibini takomillashtirish bo'yicha taklif kiritish. Dori vositalarini nazoratsiz qo'llash amaliyotini to'liq qayta ko'rib chiqish zarur. Chunki biz qaysi dorini ichish bo'yicha ko'pincha shifokor bilan emas, dorixona sotuvchilari bilan maslahatlashamiz. Ko'plab dori vositalarini shifokor retseptisiz osongina aptekadan xarid qilishimiz mumkin va bu dorilardan noto'g'ri foydalanish xavfini yaratmoqda. Turli mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, shifoxonalarga yotqizilgan bemorlarning o'ratacha 10-20 foizida dorilar nojo'ya ta'sir qilganlik holati kuzatiladi, qizig'i, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich ikki baravar yuqorini tashkil qiladi. Farmatsiya mahsulotlari ishlab chiqarishning yetarli darajada mahalliy lashtirilmaganligi mahalliy farmatsevtika korxonalarining import xomashyosi va materiallariga yuqori darajada qaramligi yuzaga keltirilmoqda, oqibatda dori vositalariva tibbiyot buyumlarining narxlari keskin oshmoqda. Dori vositalari va tibbiyot buyumlarini chakana sotish uchun litsenziya berish bo'yicha hududiy komissiyalarning faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, bu litsenziya talab va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, dori vositalarini nazoratsiz qo'llash va o'zini o'zi davolash darajasining oshishi aynan reklama bilan bog'liqdir. Bunday davolanish natijasidagi o'lim holatlari jarohatlar, qon aylanish kasalliklari, onkologik va pulmonologik kasalliklardan keyin 5-o'rinda turadi. Albatta, iste'molchilar dori-darmonlarni qo'llashdan kelib chiqadigan nojo'ya ta'sirlar, ularning muvofiqlik va organizmning individual reaksiyasi xavfini baholay olmaydi. Haqiqatdan biz dori-darmonlarga oddiy iste'mol tovari sifatida qaraymiz va bu vaziyatni yanada og'irlashtiradi. Shuning uchun mazkur masala har 100 ming aholiga o'rtacha 25-27 ta dorixonona to'g'ri keladigan O'zbekiston uchun dolzarbdir. Aholi qaysi dori vositalari import qilinayotgani, ishlab chiqaruvchilar kimligi, ularning xorijdagi nufuzi, sertifikatsiyalashtirish jarayoni qanday olib borilayotganini bilishga haqli. Shuningdek, keng aholi manfaatlariga daxldor bo'lgan farmatsevtika sanoatiga oid axborotlarni berib boruvchi ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish lozim, deb hisoblaymiz. Odamlar ko'pincha o'zini-o'zi davolashga urinmoqda, aniq tashxisni bilmasdan, Turli mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, shifoxonalarga yotqizilgan bemorlarning o'rtacha 10-20 foizida dorilar nojo'ya ta'sir qilganlik holati kuzatiladi, qizig'i, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich ikki barobar yuqorini tashkil qiladi. Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar, import qiluvchilar va sertifikatlash tashkilotlari mas'uliyatini kuchaytirish nihoyatda muhim.

Xabar berilganidek, "DOK-1 MAKS" va "Ambronol" dorilari, tekshiruvlarda aniqlanishicha "Dori vositalarini standartlashtirish ilmiy markazi" tomonidan belgilangan tartibda laboratoriya sinovlaridan o'tkazilmagan. Natijada sifatsiz preparatlarning sotuvga chiqarilishiga yo'l qo'yilgan. Shu maqsadda, Jinoyat kodeksining 186-3-moddasi subyektlari qatoriga sifatsiz, qalbakilashtirilgan va xavfsizlik talablariga javob bermaydigan dori vositalarini tarqatishga yo'l qo'ygan shaxslarni ham kiritish taklif etilmoqda. Fuqarolarni zamonaviy tashxis imkoniyatlaridan foydalanishini, davolashning yagona standartlariga asoslangan tibbiy sug'urta tizimiga o'tishni tezlashtirish zarur. Odamlar ko'pincha o'zini-o'zi davolashga urinmoqda, aniq tashxisni bilmasdan, reklamaga ishonib, turli dorilarni qabul qilmoqda. Bu kabi xatolar, shuningdek, shifokorlar tomonidan dorilarni buyurish jarayonida ham yuz beryapti. Afsuski, ularning ba'zilari alohida preparatlarni targ'ib qilishdan moliyaviy manfaat ko'zlamodalar. Shuning uchun ham tibbiy sug'urtalash tizimiga imkon qadar tezroq o'tishimiz kerak.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, bir yilda dunyoda antibiotic iste'mol qilingani tufayku 700 ming odam hayotdan ko'z yumadi. Bu juda katta raqam. O'zbekistonda bunday statistika hozircha yuritilmaydi. Lekin aytish mumkin-ki, biz ham bundan mustasno emasmiz. Shu bois, dorixonadan betartib, retseptiz dori berilishi insonga ziyon keltirishi mumkin. Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilishga davlat siyosatining eng muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda yurtimizda sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, xalqimizni rozi qilish maqsadida birlamchi tibbiyot tizmi faoliyatini tubdan yuksaltirish, dori-darmon ta'minotini

yaxshilash, hududlarda ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yo'lga qo'yish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlar yangicha mazmun kasb etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim-ki, tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirish jarayonini yuqori samarali dori-darmonsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Aholining unga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish esa farmatsevtika sanoatining qay darajada rivojlangani bilan bog'liq. Birinchi o'rında dorixonalarda shu sohani yaxshi tushunadigan ya'ni o'z kasbini mutaxassisi bo'lgan kishi ishlashi lozim. Dorixonalarda saqlanayotgan dorilarni tarkibini, qaysi dori qanaqa kasalliklarga ta'sir ko'rsatishi va ularni davolash xususiyatiga ega ekanligini bilishi kerak hisoblanadi. Bo'lmasa, dorixonlardagi ishchilar orqali olingan dorilar insonlarning hayotiga havf tug'dirishi mumkin. Shuning uchun ham inson qay kasbni egallashidan qat'iy nazar, eng zo'r mutaxassisi bo'lishi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusamatov, H. (2019). SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EXTRAMARITAL RELATIONS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(2).
2. Abdusamatov, H. (2022). PSYCHOLOGICAL SCIENCES. CUTTING EDGE-SCIENCE.
3. Abdusamatov, H. (2022). SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF CHILDREN OF MIGRANT FAMILIES.
4. Abdusamatov, H., & QURBANOVA, M. (2022). Some social and psychological advice for families who have been destroyed. In *Conference Zone* (pp. 22-24).
5. Abdusamatov, X. NIKOHDAN TASHQARI MUNOSABATLARNING YUZAGA KYELISHINING AYRIM IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
6. Dilbar, M., Lochin, R., Ruxsora, K., & Khasanboy, A. (2019). The Relationship of the Level of Need for Communication with the Style Features of the Education Manager in Uzbekistan. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 4611-4618.
7. Абдусаматов, Х. (2022). ИСЛОМ ДИНИДА ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР БУЗИЛИШИНING ПСИХОЛОГИК ТАЛҚИНИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 327-329.
8. Абдусаматов, Х. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ МИГРАНТОВ. *ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ*, 17.
9. Абдусаматов, Х. У. (2022). ХОРИЖ ОЛИМЛАРИ ТОМОНИДАН МИГРАНТ ОИЛАЛАРНИ ЎРГАНИЛГАНЛИГИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 254-257.

10. Нуралиева, Д., & Абдусаматов, Х. (2021). Ajralish arafasidagi oilalarga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. *Общество и инновации*, 2(10/S), 493-498.
11. Шамсиев, Ў., & Абдусаматов, Х. (2022). ДАСТЛАБКИ МУЛОҚОТ–ШАХС ШАКЛЛАНИШИНИНГ АСОСИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 202-207.
12. Vaxtiyorovna, S. D. (2022). YUQORI QON BOSIMINING PSIXOSOMATIK HUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 822-826.
13. Vaxtiyorovna, S. D. (2022). XOTIRA: MUSTANKAMLASH YO'LLARI, USULLARI VA VOSITALARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 328-333.
14. Ахмедова, М. Т., & Нарметова, Ю. К. (2022). “МУОШАРАТ ОДОБИ” ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА УСТОЗ-ШОГИРД МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 336-340.
15. Нарметова, Ю. К. (2023). ВИДЫ ПСИХОСОМАТИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ И ИХ ХАРАКТЕРИСТИКА У ДЕТЕЙ. *Gospodarka i Innowacje.*, 33, 221-224.
16. Нарметова, Ю. К. (2022). ОНКОЛОГИК БЕМОРЛАР ВА УЛАРНИНГ ОИЛА АЪЗОЛАРИНИНГ ПСИХО-ЭМОЦИОНАЛ ХОЛАТЛАРИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 220-224.
17. Zarnigor, N. (2022). RAHBAR PSIXOLOGIYASI VA UNING MEHNATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(24), 121-125.
18. Назарова, З. (2023). ПСИХОСОМАТИК КАСАЛЛИКЛАРДА ПСИХОКОРРЕКЦИЯ ВА ПСИХОПРОФИЛАКТИКА УСУЛЛАРИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 268-272.
19. Olimjonova, Z. B. Q. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALAR EMOTSIONAL SOHASI PSIXOFIZIOLOGIYASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 311-315.